

**CHAROSXON DAVLATNAZAROVA** – O‘zMU, XFF, Filologiya va tillarni o‘qitish (nemis tili)

Bakalavr yo‘nalishi 4-kurs talabasi

**ILMIY RAHBAR: SHUXRATXON IMYAMINOVA** – O‘zMU professori

**Annotatsiya:** O‘zbekistonda xorijiy tillarni o‘rganish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Nemis tilini o‘rganishda antonimlar muhim o‘rin tutadi, chunki ular orqali fikrlar kontrasti ifodalanadi, nutq boyitiladi va tafakkur rivojlanadi. Nemis va o‘zbek tillaridagi antonimlarni qiyosiy o‘rganish ikki tilning semantik tuzilishini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** antonimiya, antonim juftliklar, nemis tili, o‘zbek tili, stilistika, semantika, komplementar antonimlar, kontrastiv tahlil, leksik munosabatlar, til tizimi.

**Аннотация:** Изучение иностранных языков стало приоритетным направлением государственной политики в Узбекистане. Антонимы играют важную роль в процессе изучения языка, так как с их помощью выражается контраст мыслей, обогащается речь и развивается мышление. Сравнительное изучение антонимов в немецком и узбекском языках способствует более глубокому пониманию семантической структуры обоих языков.

**Ключевые слова:** антонимия, антонимические пары, немецкий язык, узбекский язык, стилистика, семантика, комплементарные антонимы, контрастивный анализ, лексические отношения, языковая система.

**Annotation:** Learning foreign languages has become a priority direction of state policy in Uzbekistan. Antonyms play an important role in language acquisition, as they help express contrasts in thought, enrich speech, and develop thinking. A comparative study of antonyms in German and Uzbek serves to deepen the understanding of the semantic structure of both languages.

**Keywords:** antonymy, antonymic pairs, German language, Uzbek language, stylistics, semantics, complementary antonyms, contrastive analysis, lexical relations, language system.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 19-maydagi „O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida“ gi qarori ham bunga yorqin misoldir: „Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili“ Davlat dasturiga muvofiq, xorijiy tillarni o‘rgatishni ta‘lim siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida rivojlantirish, ushbu yo‘nalishda ta‘lim sifatini tubdan oshirish, sohaga malakali pedagoglarni jalb etish hamda xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish agentligi tashkil etildi.“<sup>1</sup>

Xususan, leksikologiya, semantika va stilistika kabi sohalar bo‘yicha ilmiy izlanishlar chuqurlashtirilib, turli tillarning ma‘no tizimlarini o‘rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, antonimiyaga oid tadqiqotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Til tizimidagi leksik-semantik munosabatlarning muhim jihatlaridan biri antonimiyadir. Antonimlar tildagi lug‘aviy birliklarning o‘zaro zid ma‘nolarini ifodalovchi juftliklar bo‘lib, ular fikrning kontrastligini ta‘minlashda, ma‘no doirasini kengaytirishda va stilistik vosita sifatida muhim rol

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli qarori

o'ynaydi. Shu boisdan, antonimlarning struktur-semantik xususiyatlarini o'rganish tilshunoslikda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Antonimlarni o'rganish tilshunoslik va boshqa fanlar uchun muhim bo'lib, bu soha bo'yicha tadqiqotlar tilning ichki tuzilishini, inson tafakkurini va muloqot jarayonlarini chuqur tushunishga yordam beradi. Antonimlar tildagi semantik munosabatlarni ochib beradi. Ular so'zlar qanday tuzilishini va ular orasidagi bog'liqliklarni tushunishga yordam beradi. Tilshunoslar antonimiyaga asoslanib, leksik tarmoq va semantik maydonlarni tadqiq qiladilar.

Inson tafakkuri qarama-qarshiliklar orqali dunyoni tushunishga moyil. Yaxshi-yomon, issiq-sovuq, katta-kichik kabi antonimik juftliklar bizning dunyo haqidagi tasavvurlarimizni shakllantiradi. Ushbu jarayon psixolingvistika va kognitiv fanlar doirasida o'rganiladi.

Til o'rganuvchilar uchun antonimlar lug'at boyligini oshirishga va so'zlarni yodlashni osonlashtirishga yordam beradi. Tarjimonlar uchun esa antonimik munosabatlarni tushunish matnlarning mazmunini to'g'ri ifodalash va nozik ma'nolarni yetkazishda muhim rol o'ynaydi.<sup>2</sup>

Antonimlar ritorika va stilistikada muhim o'rin tutadi. Ular kontrast yaratish, ta'sirchan nutq uslubini shakllantirish va matnning emotsional ta'sirini oshirish uchun ishlatiladi. Adabiyotshunoslar badiiy asarlarda antonimiyaning roli va funksiyasini o'rganadilar.<sup>3</sup>

Antonimlar — bu bir-biriga qarama-qarshi ma'noni ifodalovchi so'zlar yoki iboralar bo'lib, ular bir xil semantik maydon doirasida turadi. Nemis tilida antonimlar „*Gegensätze*” yoki „*Antonyme*” deb ataladi. Ular tilda kontrast va ma'no ziddiyatini ifodalash uchun ishlatiladi. Antonimlarning asosiy vazifasi — qarama-qarshilikni ko'rsatish, o'quvchi yoki tinglovchining diqqatini matnning muhim jihatlariga qaratish va ma'no qatlamlarini chuqurlashtirishdir.<sup>4</sup> Misollar: *gut – schlecht* (yaxshi – yomon), *schnell – langsam* (tez – sekin), *hoch – niedrig* (baland – past). Antonimlarning asosiy xususiyatlari shundan iboratki, ular semantik jihatdan bir-biriga bog'langan bo'ladi va har bir antonim boshqa bir antonim bilan ma'no jihatdan to'ldiruvchi yoki qarama-qarshi aloqa qiladi. Ularning qo'llanilishi matnning mazmunini aniqlashtirishda, uslubiy bo'yoq berishda muhim rol o'ynaydi. Ideografik semalaridan odatda bir semasi zid, qolgan semalari aynan ikki leksema (*leksosemema*) biri ikkinchisiga nisbatan antonim deyiladi (*yunoncha anti - zid, qarshi; onyma - ism*). Bunday ma'no munosabati oppozitiv munosabat ham deyiladi (lot. *oppositivo - zid qo'yish*). Masalan, *oz - ko'p, tez - sekin, jonli – jonsiz* leksemalari orasida bo'lgani kabi.<sup>5</sup>

Olimlar antonimlarni o'rganishining asosiy sababi tilning tuzilishini, inson tafakkurini va semantik munosabatlarni chuqurroq tushunishdir.<sup>6</sup> Antonimlar so'zlarning bir-biriga bog'liq ekanligini ko'rsatib, til tizimining ishlash mexanizmlarini tahlil qilishga imkon beradi.

<sup>2</sup> Isabekov B.O. Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik antonimiya. Toshkent, Fan. 1973. 13-bet

<sup>3</sup> Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. Москва: Просвещение, 2002. – стр. 302

<sup>4</sup> Jumaniyozov O. Hozirgi o'zbek adabiy tilida antonimlar. Toshkent, Fan. 1980. 47-b.

<sup>5</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, Fan. 2006. 79-b

<sup>6</sup> Апресян Ю.Д. Лексическая семантика: Синонимические средства языка. Москва: Наука, 1974. – стр. 350

Rus tilshunoslaridan **Viktor Vladimirovich Vinogradov** (1894–1969) – „Rus tili“ asarida rus tilining leksik tizimini o‘rganib, antonimiyani semantik strukturaning tabiiy qismi sifatida ko‘rib chiqqan. U antonimlarni uch asosiy turga ajratadi:

*7 Mutlaq (komplementar) antonimlar – „hayot – o‘lim“, „ha – yo‘q“*

*Gradatsion antonimlar – „katta – kichik“, „issiqlik – sovuqlik“*

*Konversiv antonimlar – „sotmoq – sotib olmoq“, „yutmoq – yutqazmoq“*

Uning fikricha, antonimlar tilning mantiqiy va uslubiy jihatdan muhim qismi bo‘lib, ular poetik va badiiy nutqda asosiy rol o‘ynaydi.

**Lev Vladimirovich Shcherba** (1880–1944) – „Leksik tizim va semantik tahlil“ asarida antonimiyani semantik tarmoqlar va leksik maydonlar nazariyasi doirasida o‘rgangan. Uning fikricha: Antonimlar leksik tizim ichida dinamik munosabatda bo‘lib, yangi antonimlar paydo bo‘lishi yoki yo‘qolishi mumkin. Semantik jihatdan antonimlar leksik va sintaktik bog‘liqlik asosida shakllanadi. Antonim juftlari ba‘zan morfologik jihatdan ham qarama-qarshi bo‘lishi mumkin („do‘stlik – dushmanlik“). Nemis tilida antonimlar nutq jarayonida qanday qabul qilinishi masalasi psixolingvistlar tomonidan o‘rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki: Bolalar dastlabki so‘z boyligini antonimlar yordamida shakllantiradilar. Masalan, „groß – klein“ (katta – kichik) yoki „hell – dunkel“ (yorug‘ – qorong‘i) juftliklari bola ongida voqelikni ajratishda asosiy tamoyil hisoblanadi. Nutqni tushunish jarayonida antonimlar kontekstga bog‘liq holda tezroq esda qoladi. Masalan, agar matnda „Der Tag ist hell, die Nacht ist...“ kabi jumla bo‘lsa, tinglovchi yoki o‘quvchi „dunkel“ so‘zini oldindan taxmin qilishi mumkin.

Antonimlik ikki til birligi orasidagi ma‘no munosabati bo‘lib, ikkisi birgalikda antonimik juftlikni tashkil qiladi. Antonimlardan biri yoki har ikkisi o‘z sinonimiga ega bo‘lishi mumkin, lekin shunda ham antonimik juftlik holati buzilmaydi. Masalan, ko‘p- leksemasining mo‘l-, bisyor- kabi sinonimlari mavjud, shunga ko‘ra bu leksemalar oz- - ko‘p-, oz- – mo‘l-, oz- – bisyor- kabi antonimik juftliklarda qatnashadi. Antonimik munosabat odatda bir turkum leksemalari orasida bo‘ladi (yuqoridagi misollar). Bu – asosiy holat. Ba‘zan antonimik munosabat ot leksemaning belgi ma‘nosi bilan sifat leksema orasida voqe bo‘ladi. Bosh- („to‘ng‘ich“) – kenja- kabi. Sifat leksemaga fe‘l leksemaning sifatdosh shakli antonim bo‘ladi. Bunda sifatdosh shakli fe‘l leksemaning bo‘lishli shaklidan ham, bo‘lishsiz shaklidan ham hosil qilingan bo‘lishi mumkin: xom- – pishgan-, o‘tkir- – o‘tmas- kabi. Sifat leksema bilan ma‘no munosabatiga kirishuvi oqibatida bunday sifatdosh shaklidagi fe‘lning ma‘nosida yangi mundarija yuzaga keladi, mustaqil leksemaga aylanadi. Antonimik munosabat asosan belgi anglatuvchi leksemalarda mavjud, ayniqsa sifat leksemalarda, ravish leksemalarda ko‘p: yaxshi- – yomon-, och- – to‘q-, yaqin- – uzoq- kabi.<sup>8</sup>

Fe‘l leksemalarda u qadar ko‘p emas: ol- - ber-, kir- - chiq- kabi. Ot leksemalarda esa antonimik munosabat asosan belgi holat otlarida, biror belgisiga ko‘ra zidlash mumkin bo‘lgan voqelikni angla tuvchi otlarda mavjud: tinchlik- – urush-, mehr- – nafrat-, aka- – uka-, opa- – singil-, amaki- – tog‘a- kabi.<sup>9</sup>

<sup>7</sup> Виноградов В.В. Основные типы лексических значений слова. Москва: Наука, 1976. – стр. 23

<sup>8</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Tashkent, Fan. 2006. 83-b.

<sup>9</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Tashkent, Fan. 2006. 84-b.

Antonimik munosabat ba'zi turkumlarda (masalan, son, olmosh turkumlarida) umuman yo'q. Ko'rinadiki, barcha leksemalar (leksosememalar) antonimik munosabat hosil etavermaydi. Semema anglatadigan leksik ma'no o'z ziddiga ega bo'la olsagina, antonimik munosabat voqe bo'lishi mumkin. Masalan, kitob-, soat-, ko'z- leksemalarining leksik ma'nolarida bunday zidlanuvchi ma'no munosaba ti hosil etish imkoniyati yo'q; toza-, arzon-, avval- leksemalarining leksik ma'nolarida esa bunday imkoniyat bor: toza- – iflos-, arzon- - qimmat-, avval- keyin- kabi. Antonimlar ifoda jihatiga ko'ra har xil bo'lishi lozim: sog'- - kasal- kabi.

Antonim leksemalar bir asosdan yasalgan bo'lishi mumkin, bunda leksema yasovchi affikslar o'zaro antonim bo'ladi: ongli- - ongsiz- kabi. Demak, antonimlar boshqa-boshqa leksema bo'lishi kerak (Sinonimlarda ham xuddi shunday). Ba'zan bir leksemaning leksik ma'nolari o'zaro zidlanish hosil etadi: bosh- (muqaddima) – bosh (oxir) kabi. Ko'channing boshi- birikmasida ko'channing boshlanishini ham, oxirini ham tushunish mumkin. Bunday holatni antonimik munosabat deb emas, balki ko'p ma'nolilik doirasida voqe bo'ladigan hodisa deb baholash to'g'riroq. Fanda enantiosemiya deb yuritiladigan bunday hodisa juda oz uchraydi.<sup>1011</sup>

Nemis, o'zbek hamda rus tillaridagi lug'atlarni tahlil qilish jarayonida ma'lum bo'ldiki, rus tili antonimik lug'atlarga boy va nemis tilida shunday lug'atlarga ehtiyoj yuqoridir. Bu esa hozirgi zamon leksikograf–tilshunoslaridan nemis tilida ham ana shunday antonimik lug'atlar ustida yanada ko'proq izlanish hamda bunday lug'atlarni yaratish dolzarb masala ekanligini va antonimik lug'atlarni yaratishni talab etadi.

Tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan antonimlar tildagi leksik birliklarning o'zaro munosabatlarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular til tizimining o'ziga xos jihatlarini ochib berish bilan birga, inson tafakkuri va mantiqiy fikrlash jarayonining shakllanishida ham muhim rol o'ynaydi. Ushbu bobda antonimlarning nazariy asoslari, ularning til tizimidagi o'rni va funksional xususiyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, antonimlar nafaqat lug'aviy birliklar sifatida, balki nutq va matn darajasida ham muhim kommunikativ vazifalarni bajaradi. Ular tilda qarama-qarshi tushunchalarni ifodalash, kontrast yaratish va obrazli ifodani kuchaytirish vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Shuningdek, antonimlarning turli tillarda qanday shakllanishi va ularning o'ziga xos grammatik hamda semantik xususiyatlari ham tahlil qilindi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli qarori.
2. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. Синонимические средства языка. Москва: Наука, 1974.
3. Арнольд И.В. Стилистика современного английского языка. Москва. Просвещение, 2002.
4. Isabekov B.O. Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik antonimiya. Toshkent, Fan, 1973.
5. Jumaniyozov O. Hozirgi o'zbek adabiy tilida antonimlar. Toshkent, Fan, 1980.

---

<sup>10</sup> Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Tashkent, Fan. 2006. 93-b.

**THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY**

**VOLUME-5, ISSUE-5**

6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Fan, 2006.
7. Виноградов В.В. Основные типы лексических значений слова. Москва: Наука, 1976.

